

BOBUR VA JADIDLAR IJODIDA VATANPARVARLIK G'oyalari MUSHTARAKLIGI

Soatova Gulzoda Nurmamat qizi*

Xalqimiz o'zining yuksak tarixi, ulug' ajdodlari bilan hamisha faxrlanib keladi. Dunyoning qaysi burchagiga bormang, ajdodlarimiz merosiga duch kelamiz. Ayniqsa, XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo va Hindistonda Bobur yaratgan ijtimoiy-siyosiy muhit dunyo tamaddunida alohida iz qoldirdi. Bobur barpo etgan buyuk sultanatda ilm-ma'rifat, madaniyat, san'at, adabiyot yanada ravnaq topdi. Temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek mumtoz adabiyoti, jo'g'rofiya, tarix voqeligini muhrlashda katta mavqega erishdi.

Bobur ijodi serqirra. Birgina "Boburnoma" asari tarix, geografiya, adabiyot kabi fanlar uchun asos vazifasini o'taydi. Ammo uning ijodida vatanni sevish, vatanparvarlik g'oyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ijodkor asarlarida vatanni sevishni shu darajada aniq tasvirlaydiki, kitobxon "Hech kim vatanini Boburchalik sevmasa kerak!" degan fikrga keladi. Albatta, bu fikrda jon bor. "Boburnoma" mohiyatan Vatan haqidagi, uni sevish, qadrlash haqidagi muhim manbadir. Shu o'rinda V.Rahmonovning: "Badiiy mahorat bobida biror o'zbek shoiri Bobur bilan bellasha olmaydi... Uning mumtoz she'riyatga dadil kiritgan tarjimayi hollik xususiyati ham Bobur she'riyatini alohida nurlantirib turadi. Ana shu keyingi xususiyat shoirning vatanparvarlik xususiyatlariga jon bag'ishlaydi" [Rahmonov. 2008, 4] degan fikrlarini eslab o'tishni joiz topdik.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit Boburni o'z vatanida uzoq vaqt hukmdorlik qilishiga yo'l bermadi. U Afg'oniston va Hindistonga ketishga majbur bo'ldi. Bobur bu voqealarni quyidagicha tasvirlaydi:

Tole' yo'qe jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishnikni ayladim xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

U Hindistonda imperiya tuzdi, ammo buni yuz qarolig' deb atadi. Imperator bo'lsada o'zini baxtsiz his qildi, chunki u vatanidan yiroqda edi. Shu sababli o'z ona vatanı firoqida nola-yu fig'on chekib yashadi. Hattoki: "Ona yurtim havosi kelib turadigan, yurtimga yaqinroq joyga boray", deb Qobulga dafn etishlarini so'radi. Ushbu ruboiyda Bobur vatanidan ayri hayotini kuchli badiiy mahorat bilan ifodalagan. Professor N. Jabborov: "Ijod namunasi mukammal badiyat bilan birga teran ma'noni mujassam etmog'i zarur" [Jabborov 2021, 192] deganidek, ma'no-mazmun ham nihoyatda kuchli.

Bobur ijodidagi vatanni sevish, uning ravnaqi uchun kurashish haqidagi vatanparvarlik g'oyalari jadid adabiyoti namoyondalari ijodidagi vatanparvarlik g'oyalari bilan mushtarakdir. Vatan qadri - vatandan yiroq bo'lganda bilinar deganidek, Bobur vatanidan yiroqlashgach, undagi vataniga bo'lgan mehr yanada ortib bordi. Bora-bora bu ulkan dardga aylandi. Bu ulkan dard oradan vaqtlar o'tib, yurtimizning rus iste'lochilari tomonidan ezilishi, urf-odatlarimiz, dinimiz, tilimizning toptalishi natijasida jadid bobolarimizda-da paydo bo'ldi. Jabrdiyda qora xalqning tur mush tarzi, vayron bo'layotgan ma'naviyati ularning sabr kosasini to'ldirdi. Natijada, bu hol jadid ijodkorlarning vataniga bo'lgan mehrini kuchaytirdi. Yurt farovonligi, ozodligi uchun kurashish ularning bosh g'oyasiga aylandi.

Bobur va jadid namoyondalari asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining aks etishi mohiyatan o'xhash bo'lsada, badiiy tasvir jihatidan o'zgacha. Bobur ijodida vatan madhi ochiq, baralla madh etilsa, jadidlar ijodida esa yashirin, tag ma'noda aks etadi.

Bobur Hindistonga borgach, u yerning iqlimi, tabiat, odamlari, urf-odatlari, ilm-ma'rifati uni hech qoniqtirmaydi. Uning ko'ngli o'z yurtida qolib ketgan edi. U yerdagi barcha ko'rganlarini Movarounnahrdagilar bilan solishtiradi, ich-ichidan o'ksinadi. Bu quyidagicha tasvirlanadi: "Hinduston kam latofat yer voqe bo'lubtur. Elida husn yo'q va tab' va idrok va adab yo'q va karam va muruvvat yo'q va hunarlarida va ishlarida siyoq va andom va raja va go'niya yo'q va yaxshi ot yo'q va yaxshi it yo'q va uzum va qovun va yaxshi mevalar yo'q va yax yo'q va sovuq suv yo'q va bozorlarida yaxshi osh va yaxshi non yo'q va hammom yo'q va madrasa yo'q va sham' yo'q va mash'al yo'q va sham'don yo'q..." [Bobur 1989, 167]. Ammo Bobur uzoqlarda vatan sog'inchi ila yashasa-da, Hindistonni ham tashlab qo'ymadni. U yerni ham xuddi ona vatanidek taraqqiy toptirish uchun qo'lidan kelgancha xizmat qildi. Buni Javaharlal Neruning quyidagi fikrlari ham isbotlaydi: "Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi" [Rahimov 2022,6].

Vatan ravnaqi uchun qayg'urish jadid namoyondalaridan biri Elbek ijodida ham uchraydi. Bu ikki ijodkorning vatanga bo'lgan muhabbat mohiyatan bir xil. Uning gullab yashnashi uchun kichik voqealarga ham katta e'tibor qaratadi. Bu muhabbatning farqi shundaki, birlari vatanidan uzoqda turib yurt qayg'usi bilan yashasa, biri vatanida turib qayg'uradi.

Elbekning "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida bosilgan "**Kelgusining quyoshi**" [Elbek 1925, 74-76] hikoyasida tunda sham yog'dusida kitob o'qiyotgan bola obrazi orqali millat istiqboli ana shunday ilmga chanqoq farzandlarga bog'liq ekani tasvirlangan. Hikoyada bu parcha quyidagicha tasvirlanadi: "... Qorong'ida bo'lg'on narsalarni ko'raturg'on ko'zlarim nechun yorug'da yaxshi ko'ra olmaydirlar?" deb qo'ydimda takror qaradim. Bu gal chiroq yaqinida qimirlamoqda bo'lg'on bir narsaga ko'zim tushdi. Yana diqqat bilanoq qaradim, ko'rdim: yoshg'ina bir bola kichik o'rindiqqa o'ltirib kitob o'qimoqda edi. Darhol dedim: "Yorug'liq yorug'liq'a qo'shilg'ach qanday ko'rinsun?"

Mazkur hikoyada ilmli bolalar kelajagimizning quyoshi ekanligi ta'kidlanadi. Kechasi sham yorug'ida kitob o'qiyotgan bola, farzandining yoniga kelib joyida uqlashini kutib yotgan ona obrazida yosh avlodni ilm olishi uchun ko'maklashish zarurligi, shunda yurt kelajagi porloq bo'lishi tasvirlanadi. Kitob o'qib, ilm olayotgan bola nurga, yorug'likka qiyoslanadi. Bu yerda tasvirlangan tun, jaholat qorong'uligida qolib ketayotgan jamiyat, sham yorug'ida kitob o'qiyotgan bola esa bu qorong'ulikni daf qiluvchi yorug'lik ramzidir [Soatova 2023, 84-95].

Albatta, vatanparvarlik g'oyalari Bobur hamda jadid adabiyoti namoyondalarining nazmiy asarlarida ham uchraydi. Ushbu ruboiyda Bobur o'z yurtidan o'z istagiga binoan ketmaganligini anglash qiyin emas.

Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen,
Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen.
Qobulda iqomat etti Bobur dersiz,
Andoq demanggizlarki, muqim ermasmen [Bobur 1993,49]

Ruboiydan Boburning o'zi Qobulda yashasa-da, ruhi Andijonda ekanligi anglashiladi. Hech bir shoir vatandan yiroqlik fojiasini Boburchalik ta'sirchan ifodalay olmagan. Shu o'rinda Bobur kelajak avlod o'zi haqida mol-dunyo uchun Qobulni ishg'ol qildi degan fikrga borishidan qo'rquadi. Mol yig'ishtiradigan laim emasligini ta'kidlaydi.

Bu kabi vaziyat Cho'lpon ijodida ham uchraydi. "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida nashr etilgan "Bahorni sog'indim" [Cho'lpon 1926, 74-76] she'rida adib bir qarashda qorni, qish faslini tasvirlagndek bo'ladi. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, Cho'lpon inson va tabiat o'rtasidagi hamohanglikni judayam yaxshi tushunadi. 1926-yil sentabrida Samarqanda bitilgan bu she'rda bir qarashda oppoq qor tasvirlanayotgandek. Ammo ushbu she'rda oppoq qor va qordan keyingi iliq bahor tasvirlanishi bilan bir qatorda qor obrazi mustamlakachi davlatning, tuzumning, "latif siyna" esa dalalarning - ona diyorning timsolidir. Cho'lpon oddiy tabiat lirkasida ham o'z ijodining bosh g'oyasi - erk va hurriyat g'oyalarini tarannum etadi. She'r oxirida "Yana bahorlar, Yana lolalar, Yana siz, ey... erkin tilaklar!.." deydi. Bir o'chib, yana yongan tilaklar nima? Shubhasiz, mustamlakachilik kishanlaridan ozod bo'lish, mustaqil bo'lish, erkin va ozod yashashdir. Ijodkor bu fikrlarini 1921-yilda "Buzilgan o'lkaga" she'rida ham oshkora aytadi.

Bahorni sog'indim

Bahorni sog'indim, bahorni...	So'la boshladi
Ko'rganda, yerlar, olamlar to'la qorni.	Sarg'aygan yaproq,
Qor... Qor...	Bo'yanib tuproq
Zaharli ninalar kabi	O'la boshladi, o'la boshladi...
Ko'zlarga qarab oqar...	Yo'q... o'lim yo'qdir!
Qayda sen, qayda sening	Yolg'iz, bir o'chib... bir so'nish bordir!
Latif siynalar kabi	Bir o'chib, so'nib...yana yonish bor,
Dalalarga singgan bahor!..	Yana bahorlar,
Ekin-tekin...	Yana lolalar,
G'amgin-g'amgin	Yana, siz, ey erkin tilaklar!..

Bobur Hindistonni zabit etib, uning taraqqiyoti uchun kurashayotgan bir paytda ona zaminidagi o'simlik va inshootlarni bu yerda bunyod qilish uchun harakat qildi. O'zini xuddi o'z yurtida yashayotgandek his etishni xohladi. Ayniqsa, hind yerlariga qovun va uzum ekilganligi, lekin o'z yerida yetishtirgandek bo'limgani xususida fikrlar "Boburnoma" asarida ham keltirib o'tiladi.

Qovun birla uzumning hajrida ko'nglumda g'am har so',
Oqar suvning firoqidin ko'zumdin har dam oqar su(v)[<https://kh-davron.uz.>]].

Ikkinchisi misrasida esa Hindistonda oqar suv yo'qligi badiiy bo'yoqlar asosida tasvirlangan. Vatan sog'inchisi Boburni bir lahza bo'lsada tark etmadi. Aksincha, keksaygani sari qattiqroq o'rtadi. Bu uning ijodida yaqqol namoyon bo'ladi.

Qayg'ungni cheka-cheka qaribdur Bobur,
Rahm aylaki, o'zidin boribdur Bobur.
Noranj yubordi sangakim, bilmagaysen,
Ya'nik, bu nav' sarg'oribdur Bobur [Bobur 1993, 46].

1927-yil "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida chop etilgan, joriy nashrlarda uchramaydigan Botuning "Kurash" [Botu 1927, 31] she'rida ham vatanni sevish, yov kelganda qo'riqlash, vatan uchun kurashishda, avvalo, yerli xalq mas'ul ekanligi borasidagi g'oyalar aks etadi. She'rda kapitalistlar zamoni qoralanayotgandek bo'lsada, ammo "... U, shonli alanga, Zo'r jarchi emasmi? "Eng so'ngg'i kurashga Tur

yerli!" demasmi?" jumlalari adibning o'zi yashayotgan davr xususida so'zlayotganidan darak beradi. Bu yerda shonli alanga - qizil armiyaning simvollaridan biridir.

Har yonda kurash bor:	U, shonli alanga,
Qon to'lquni kuchli;	Zo'r jarchi emasmi?
Har onda talash bor:	"Eng so'ngg'i kurashga
Tig'lar zahari uchli...	Tur yerli!" demasmi?

Qon oshiqi "to'qlar"	"Zindonli saroylar"
Songgi damda-da ezmak	Bir qancha tomonda.
Yo'qsilni voh, qon kezmak	Mag'rur bir zamonda,
Istab otar o'qlar...	Tinch o'tmagay oylar.

Vahshat tig'i ko'p el,
Ko'ksin yaro etdi;
So'ng sharqda alanga
Ko'klargacha yetdi.

Shuningdek, she'rda qon oshig'i to'qlar, bu janglarda ezilgan, qon kezgan yo'qsillar, oddiy xalq ekanligi, buni yengish uchun kurashish lozimligi ochiqlanadi. Botu she'rlarida farovon va erkin, ozod hayot uchun kurashish bosh motiv darajasiga ko'tarilgan.

Jadid bobolarimiz badiiy ijod bilan birgalikda yurt ozodligi, farovonligi uchun kurashishdek siyosiy masalarda ham faol bo'ldi. Bu ular ijodining bosh g'oyasiga aylandi. Bir so'z bilan aytganda: "XX asr tongida millat ziyyolilarining Turkiston xalqiga ma'rifat tarqatishdagi xizmatlari beqiyosdir. Ular ma'naviy-ma'rifiy ruhdagi o'tkir publitsistik maqolalari va asarlari bilan millatni uyg'otishga, jaholat iskanjasidan ma'rifat yuksakligiga olib chiqishga intildi" [Pardayev Q. 2021, 162].

Bobur nafaqat vatanparvar shaxs, shoh, shoir sifatida, balki o'zida barcha ezgu xislatlarni jam etgan haqiqiy inson sifatida ham jahonda o'z o'rniga ega. Uning serqirra ijodigina emas, vatanparvarligi, jasurligi, odamiylici ham bugungi yosh avlod tarbiyasi uchun namunadir. Yurtparvarlik borasida uning avlodlari jadidlarlarning faoliyati ham tahsinga loyiq. Bugungi kunda jadid adabiyoti namoyondalarining buyuk xizmatlariga yuqori baho berilib, jadid adabiyoti milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi sifatida baholanmoqda.

Adabiyotlar

Bobur Z.M. 1989. Boburnoma. (Nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiyev) Toshkent: Yulduzcha.

Bobur Z.M. 1993. Mahrami asror topmadim. (Nashrga tayyorlovchi Saidbek Hasan). Toshkent: Yozuvchi.

Botu. Kurash // Maorif va o'qitg'uvchi. Toshkent: 1927, № 5 - B. 31.

Elbek. Kelgusining quyoshi // Maorif va o'qitg'uvchi. Toshkent: 1925, № 9-10 - B. 74-76.

Cho'lpom. Bahorni sog'indim // Maorif va o'qitg'uvchi. Toshkent: 1926, № 7-8 - B. 74-76.